

# “GLAZAVIR” — koʻzning virusli kasalliklariga qarshi zamonaviy bioeruvchan plyonka

OʻzR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari tomonidan bioeruvchan “GLAZAVIR” virusga qarshi dorivor plyonka ishlab chiqildi.



Ushbu dorivor plyonka keng taʼsirga ega boʻlib, virusga qarshi faollik, immun tizimini mustahkamlovchi, regeneratsiyalovchi, antiproliferativ xossalarni namoyon etishi aniqlangan.

Bioeruvchan “GLAZAVIR” dori plyonkasi yuqori qovushqoqlikni namoyon etib, koʻz shox pardasidagi suyuqlik bilan uzoq taʼsirlashish xossasiga ega va koʻz shox pardasi yuzasi boʻylab bir xil taqsimlanadi.

Plyonka koʻz quyi qobigʻiga qoʻyilganda vaqt davomida bosqichma-bosqich eriydi. Plyonka tarkibidagi biologik faol modda tomchi shaklidagi dori vositasiga nisbatan uzoq vaqt taʼsir etishi aniqlangan.

“GLAZAVIR” dorivor plyonkalari oftalmologiyada virusli koʻz kasalliklarini davolashda qoʻllaniladi. Dorivor plyonkalari koʻzga sutkasiga 1-2 marta qoʻyiladi. U bioparchalanuvchan va bioeruvchan boʻlib, salbiy taʼsirga ega emas.

“GLAZAVIR” bioeruvchan dorivor plyonkasi oʻzining yuqori samaradorligi, uzoq muddatli taʼsiri va koʻz toʻqimalariga mos biologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Virusli koʻz kasalliklarini davolashda xavfsiz va qulay vosita boʻlib, tomchi shaklidagi preparatlarga qaraganda yuqori terapevtik afzalliklarga ega.